

Madina BATIRXANOVA,
Farg'ona davlat universiteti DSc doktorant, f.f.f.d. (Ph.D),
 Email: mbatirxanova@mail.ru
 Tel: (93)6423010

FarDU dotsenti, p.f.n. G.Davlyatova taqrizi asosida

PRAGMATIC CONSISTENCY AND CONTRADICTIONARY TRANSLATION OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN WORKS OF FICTION

Annotation

In the course of our research the statistical analysis of SPhUs (further is given as a somatic phraseological units) of works of art was determined. Their use by Russian and English translators is given in numerical expression on the basis of the graph and statistics is given. It is shown that SPhUs are expressed not only in Old Turkic language, but also in unrelated languages - Russian and English, as well as, if we consider from the point of view of general linguistics, FPhUs are of great importance also in linguistics, according to their peculiarities, in linguistic, historical, national and cultural forms. The search for alternatives to translate an SPhU rather than pragmatic adequacy often leads to pragmatic inconsistency. In this case, it is advisable for the translator to use the alternative, figurative and lexical method of translation when there is no equivalent SPhU in the language. When expressing somatic FPhUs in the translated text, taking into account their specific function in the context of the text can lead to better results in translation practice.

Key words: Artistic translation, linguocultural features, somatic phraseologisms, pragmatics, national connotation, equivalence, non-equivalence, cultural, communicative, cultural codes, idioms, pragmatic factor, pragmatic adequacy.

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ И ПРОТИВОРЕЧИВОСТЬ ПЕРЕВОДА СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ.

Аннотация

В ходе нашего исследования был определен статистический анализ соматических фразеологических единиц (далее как СФЕ) произведений искусства. Их использование русскими и английскими переводчиками приведено в числовом выражении на основе графика и приведена статистика. Показано, что СФЕ выражены не только в древнетюркском языке, но и в неродственных языках - русском и английском, а также, если рассматривать с точки зрения общего языкознания, ФЕ имеют большое значение и в языкознании, в соответствии со своими особенностями, в языковых, исторических, национальных и культурных формах. Поиск альтернатив перевода СФЕ, а не прагматической адекватности, часто приводит к прагматической непоследовательности. В этом случае переводчику целесообразно использовать альтернативный, образный и лексический метод перевода, когда в языке нет эквивалента СФЕ. При выражении соматических ФЕ в переведенном тексте учет их специфической функции в контексте текста может привести к лучшим результатам в переводческой практике.

Ключевые слова: Художественный перевод, лингвокультурные особенности, соматические фразеологизмы, прагматика, национальный оттенок, эквивалентность, безэквивалентность, культурный, коммуникативный, культурные коды, идиомы, прагматический фактор, прагматическая адекватность.

BADIIY ASARLARDAGI SOMATIK FRAZEOLGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDA PRAGMATIK MUVOFIQLIK VA NOMUVOFIQLIK

Annotatsiya

Biz tadqiqotimiz davomida badiiy asarlarning somatik frazeologik birliklarini (SFB) statistik tahlili aniqlandi. SFB faqatgina qadimiy turkiy tildagina emas, balki qardosh bo'lmagan tillar – rus va ingliz tillarida ham ifodalanganligi, shuningdek, agar umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, FBlar ham o'z xususiyatlariga ko'ra lingvistik, tarixiy, milliy va madaniy shaklda tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib berildi. Pragmatik adekvatlikka ko'ra, SFBlar tarjimasining muqobil variantlarini izlash, ko'pincha pragmatik nomuvofiqlikka olib keladi. Bu masalada tarjimonning tilda SFB ekvivalenti bo'lmaganda, muqobil, tasviriy hamda leksik tarjima usulidan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Somatik FBlarni tarjima matnida ifoda etishda ularning matn kontekstida bajaradigan aniq vazifasidan kelib chiqish tarjima amaliyotida yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: Badiiy tarjima, lingvomadaniy xususiyatlar, somatik frazeologik birliklar, pragmatika, milliy konnotatsiya, ekvivalentlik, ekvivalentsiz, madaniy, kommunikativ, madaniy kodlar, idiomalar, pragmatik omil, pragmatik adekvatlik.

Kirish. Badiiy tarjimaning asosiy vazifasi madaniyatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro muloqot aniqligini, uzatilyotgan axborotni tushunishni kuchaytirishdan iborat. Amerikalik professor Rayner Shultening fikricha, "badiiy tarjima madaniyatlar va tillar o'rtasidagi nozik hissiy aloqalarni bog'laydi va insoniyatni milliy chegaralar orqali tushunishga yordam beradi. Badiiy tarjimada boshqa madaniyatning ruhi shaffof bo'ladi va tarjimon yangi tilning lingvistik, musiqiy, ritmik va vizual imkoniyatlari orqali xorijiy mamlakatlar va xalqlarning nozik hissiyotlarini qayta tiklaydi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarjima nazariyasi borasida ingliz tarjimashunoslari T.Sevori, J.Ketford olib borgan tadqiqotlar e'tiborga loyiq. Tarjima sifatini baholash jarayonida ko'p hollarda muqobilik darajasiga katta ahamiyat beriladi.

Tarjima nazariyasida muqobillik darajalarini aniqlash borasida ko'plab olimlar, jumladan, A.Fyodorov, Retsker, Ketford, Gak, Yeger va boshqalarning qarashlari mavjud[1].

Hozirgi kunda zamonaviy tarjimashunoslik yo'nalishiga juda ko'plab o'zbek tarjimonlari va lingvistlari o'z hissalarini qo'shmoqda. Bulardan Xurshid Davron, Muhammad Ali, Ibrohim G'afurov, Qudratxon Musayev, Abduzuhur Abdudzizov, Najmiddin Komilov, Muhammadnodira Safarovalarni aytib o'tish mumkin.

S.G'aziyeva va A.Uzbekov tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlarini ifodalashda millatning milliy, jug'rofiy, ma'naviy, diniy, axloqiy aspektlari mujassam ifoda etilganligi asosiy va muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydilar[2]. Har qaysi millatning o'ziga xos xususiyatlari boshqa millatda uchramaydi va o'zining yagonaligi bilan ajralib turadi.

Tahlil va natijalar. Shuning uchun tarjimada milliy konnotatsiyalarni ko'rsata olish tarjimondan maxsus qobiliyat talab qiladi. Har qaysi millatning badiiy asarlarida milliy fazilatlar namoyon bo'ladi. Ushbu milliy fazilatlarini tarjima qilish jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar, muammolar ham vujudga kelishi ham tabiiy. Aynan ushbu muammolarni aniqlash, tarjimada muvofiq usullarni taklif qilish, muvofiq so'zlarni, idiomalarni berish diqqatga sazovor masaladir. Tarjimon bir millatga xos xususiyatlarni boshqa millat tiliga taqdim etishning o'ziga xos yo'llarini bila olishi kerak. Mazur tadqiqot ishida biz badiiy asarlar tarjimasida SFBllarning o'zga tilga taqdim etish masalalarini yoritishga, tarjimada ayrim kamchiliklarga, ekvivalentlik va ekvivalentsiz holatlarga o'z e'tiborimizni qaratdik.

SFBllarning tarjima jarayonida, yuqorida eslatib o'tganimizdek, o'zbek tilida ko'p FBlar ingliz va rus tiliga oddiy leksik birliklar orqali uzatiladi. Biz quyidagi misollarni tahlil qilishda M.Abdurahimovning qisqa o'zbekcha-ruscha FBlar lug'atidan foydalandik[3]. Masalan, boshga ko'tarmoq somatik frazeologik birligi rus tilida ekvivalenti va analogi yo'qligi tufayli leksik birliklar orqali tarjima qilingan.

FBlar tarjimasidagi pragmatik muvofiqliklarning asosiy 3 turi quyidagilar:

1. To'liq mos kelish: boshini yo'qotmoq – *терять голову* – to lose one's head.

Qisman mos kelish: bir qarich til – *длинный язык* – long tongue; tovuq miya – *куриные мозги* – bird brain/sparrow brain.

Butunlay mos kelmaslik: ko'z(i) yorimoq – *родить* – give birth.

Asliyat tilidagi matn tarjima tiliga o'girishda pragmatik omillarni hisobga olish zarurati xorijiy til frazeologizmlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'zga yaqqol tashlanadi. Masalan, mehmonlarni ziyofatga taklif qilish uchun illokutiv nutqiy harakatni inglizlar "I'd love to/I'd be happy to/I am pleased to/I'll gladly", o'zbeklar esa "Bosh ustiga/Jonim bilan", ruslar "С большим удовольствием/К вашим услугам/С готовностью" iborasi orqali izhor qiladilar.

Bosh komponentli SFBllarning soni o'zbek tilida talaygina. Ushbu somatik iboralar turli semantik guruhlariga kiritilishi bilan "madaniy kodlar"da bitta guruh a'zolari ham bo'lishi mumkin. Mazkur tadqiqot ishida biz somatik iboralarning lingvomadaniy xususiyatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, asosiy urg'u ularning "madaniy kodlar" orqali qaysi guruhlarda tasniflanishini, har qaysi tilda "madaniy kodlar"ga taalluqli SFBllar rang-barangligi bilan ta'riflanishini hamda bir tildan ikkinchisiga uzatilganda somatik iboralarda "madaniy kodlar" o'zgarishi yoki umuman FB emas, leksik birlik sifatida tarjima qilinishini ko'p uchraydigan holatlardan deyish mumkin.

Asliyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asliyatga va tarjimada mutlaqo boshqa-boshqa narsa haqida gapirilyotgandek taassurot uyg'otadi. Ushbu tarjimaga quyidagi misolni keltirish mumkin:

- Nazarimda, qadam olishi, turqi-tarovati Nazirqulga o'xshaydi.

- Yo'g'-e. Qo'y og'zidan cho'p olmagan bola-ya. Yanglishayotgandirsiz. (Said Ahmad, Hukm.)

Iboraning rus tilidagi analogi sifatida он и мухи не обидит, он и во сне комара не уьбѣт, ingliz tilidan esa he can't say do to a goose, he would't hurt a fly, he can't say do to a goose iboralarini keltirishimiz mumkin (muallif tarjimasini).

Bu yerda asliyat va tarjima matnlari orasida mazmuniy umumiylik mavjudligi tufayli ekvivalentlik yuzaga kelgan.

M.Abdurahimovning frazeologik lug'atidan yana quyidagi misollarni keltiramiz:

... Sen yo kolxozing to'g'risida gazetalarda yozishsa, Zaynab o'qib, boshi ko'kka yetadi. (Oybek, Oltin vodiyan shabadalar.)

А когда о тебе или о твоём колхозе пишут в газетах. Зайнаб чувствует себя на седьмом небе от радости.

O'zbek tilidagi boshi ko'kka yetmoq iborasining rus tilidagi analogi быть на седьмом небе от счастья iborasidir. Tarjimon matn tarjimasida ushbu analogdan foydalangan. Ikki tilda somatik iboralar "animik-somatik madaniy kod"ga taalluqli bo'lib, tarjimada ham ma'no mutanosibligiga erishilgan.

Tarjimonlar rus va ingliz tili retseptori ehtiyojini hisobga olgan bo'lsalar-da, biroq bu tarjima oqibatida kelib chiqadigan matn g'alizligini hisobga olmaganlar. Natijada SFB tarjimalarda to'la ifodalanmay qolgan. Bu jihatlar tarjima amaliyotiga kirishishdan oldin shu xalq tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlaridagi nozikliklarni atroflicha o'rganishni taqozo etadi.

Pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy unsuri hisoblanib, ularning kayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to'la-to'kis mosligini vujudga keltiradi. Natijada tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o'qigan kitobxon asliyat sohibi asar mutolaasidan oladigan taassurot darajasida ta'sirlanadi, tarjimaning asliyatga pragmatik adekvatligi asliyat va tarjima sohiblarining bir xil axborotga ega bo'lishlari bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirgan tahlillarimizga asoslanib, FBlar til birliklari mavjud bo'lmagani uchun ularning o'ziga xosligi yo'q, shuning uchun ular leksik birlik bo'lgani alohida so'zlar sifatida qaraladi. Biz FBlarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborsiz qoldirib, bunday qarashlarga qarshi chiqamiz, frazeologiya sohasidagi ijodiy izlanishlarni ma'qullaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Schulte Rainer. Theories of Translation. – Chicago: Chicago University Press, 1992.

2. Gaziyeva S.,Uzbekov A. Tarjimaning lingvokulturologik muammolari // Science and Education. – Т., 2020. – №.4. – Б.118.
3. Abduraximov M. Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. – Toshkent:O‘qituvchi, 1980. – 183b.
4. Savory T. The Art of Translation. – London, 1952; Catford J.A. Linguistic Theory of Translation. – London, 1965.
5. Фёдоров А.И. Фразеологический словарь русского литературного языка. Около 13000 фразеологических единиц. 3-е издание, исправленное. 2-е издание, однотомное, стереотипное. – М.: АСТ–Астрель, 2001. – С.181
6. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Россия, 1974. – С.115; Гак В.Г. Языковые преобразования. – Москва, 1988. – С. 139
7. Егер Г. Коммуникативная и функциональная эквивалентность // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике / Г.Егер. – М.: Междунар. отношения, 1978. – С.137-156.
8. Gaziyeva S.,Uzbekov A. Tarjimaning lingvokulturologik muammolari // Science and Education. – Т., 2020. – №.4. – Б.118.